TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.15/03.06.2023.FM/T.73.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI QARSHI FILIALI

TURDIYEV ULUG‘BEK QAYUMOVICH

BYURGERS TURIDAGI TENGLAMALAR BILAN IFODALANUVCHI JARAYONLARNI MATEMATIK MODELLASHTIRISH

05.01.07 – Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui (fizika-matematika fanlari)

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent-2024

UDK 532.5

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата дисертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on physical and mathematical sciences

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.15/03.06.2023.FM/T.73.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI QARSHI FILIALI

TURDIYEV ULUG‘BEK QAYUMOVICH

BYURGERS TURIDAGI TENGLAMALAR BILAN IFODALANUVCHI JARAYONLARNI MATEMATIK MODELLASHTIRISH

05.01.07 – Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui (fizika-matematika fanlari)

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent-2024

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.4.PhD/FM451 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filialida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.tstu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Imomnazarov Xolmatjon Xudaynazarovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor (Rossiya, HM va MG ITI)
Rasmiy opponentlar:	**Jabborov Nasriddin Mirzaodilovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Azamov Siroj Sobirovich fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy tadqiqot instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universitetida huzuridagi PhD.15/03.06.2023.FM/T.73.08 raqamli Ilmiy Kengashning 2024 yil « 7 » may soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (155 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100167, Тошкент, Темирйўлчилар кўчаси, 1 уй. Тел.: (99871) 299-00-01;факс: (99871) 293-57-54; e-mail: rektorat@tstu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «24» aprel kuni tarqatildi.
(2024 yil «24» aprel dagi 1 raqamli reyestr bayonnomasi).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TRANSPORT VAZIRLIGI TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

X.M.Shadimetov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy Kengash raisi, f-m.f.d, professor

F.A.Nuraliyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy Kengash ilmiy kotibi, f-m.f.d, professor

I.Mirzayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy Kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, f-m.f.d, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon miqyosida olib borilayotgan ko‘plab ilmiy-amaliy tadqiqotlar, aksariyat hollarda, metrologiya va okeanologiya sohalarida ko‘p fazali siqiluvchan muhitlar uchun dinamik jarayonlarni modellashtirish, shuningdek, mantiya jinslaridagi konvektiv massa almashinishi, filtratsion oqimlar va turli geologik jarayonlarning matematik modellari uchun sonli-analitik usullarni yaratish masalalariga keltiriladi. Fazalararo intensiv massa almashinuvi kuzatiladigan neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish jarayonida tabiiy qatlamlardagi flyuidlar oqimini hisoblashda ko‘p fazali muhitlar modelini yechish matematik modellashtirish va hisoblash matematikasi sohalari bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlarning ob’ekti hisoblanadi. Shu sababli, ikki tezlikli gidrodinamikada yuzaga keladigan bir o‘lchovli Byurgers tipidagi tenglamalar sistemasi uchun Koshi va chegaraviy masalalalarni sonli yechish sxemalari hamda algoritmlarni qurish, dasturiy vositalar majmuini yaratish amaliy matematikaning muhim vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Jahonda ko‘p fazali oqimlarni modellashtirish va aralash elliptik-giperbolik tipdagi tenglamalar sistemasi uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni keng tadqiq etishda boshlang‘ich-chegaraviy shartlarning nokorrekt qo‘yilishi bilan bog‘liq bo‘lgan qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun o‘zgarmas bosimli modelning turli giperbolik ko‘rinishdagi matematik modellarini tuzish va ularni sonli usullar yordamida yechishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan Byurgers tipidagi tenglamalar va ularning sistemasi orqali ifodalanuvchi modellar metrologiya, okeanologiya neft va gaz sohalarida keng qo‘llash bo‘yicha tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, o‘zgarmas bosimga ega bo‘lgan qo‘shsuyuqlikli muhitda nochiziqli to‘lqinlar tarqalishining matematik modelini takomillashtirish, ikki tezlikli gidrodinamikada yuzaga keladigan Byurgers tipidagi bir o‘lchovli tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasini yechish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tadbiqiga ega bo‘lgan matematik fizika, mexanika, seysmologiya, neft-gaz va energetika sohalaridagi masalalarning modellashtirish va sonli-analitik yechish usullarini ishlab chiqish kabi dolzarb yo‘nalishlarda tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarorda «Funksional analiz, algebra, differensial tenglamalar, matematik fizika, matematik modellashtirish, hisoblash matematikasi va diskret matematika, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika» kabi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha xalqaro standartlar darajasidagi ilmiy izlanishlar olib borish vazifalari belgilab berilgan[1]. Qaror ijrosini ta’minlashda o‘zgarmas bosimga ega bo‘lgan qo‘shsuyuqlikli muhitda nochiziqli to‘lqinlar tarqalishining matematik modelini qurish va sonli yechish, jumladan Byurgers turidagi tenglamalar bilan

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy- tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4708-son Qarori. www.lex.uz.

ifodalanuvchi jarayonlarni matematik modellashtirish, ularning sonli usullari va samarali hisoblash algoritmlarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni, 2021-yil 1-apreldagi PF-6198-son “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi farmoni, 2019-yil 27-apreldagi PQ-3682-son “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika”ning ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ma’lumki, fizika, biologiya, iqtisodiyot, kimyo va qator boshqa fanlardagi jarayonlarni tavsiflashda nochiziqli modellardan foydalaniladi, bu modellar nochiziqli differensial tenglamalarga olib kelinadi. Bunday masalalarni hal qilishda bir qator xorijiy olimlar katta hissa qo‘shishgan, jumladan L.D.Landau va Y.M.Lifshits, I.Prigojin va P.Mazur (suyuq geliy gidrodinamikasi bo‘yicha ishlar), L.S.Leybenzon (g‘ovak muhitlarda suyuqliklar mexanikasiga oid ishlar), Y.I.Frenkel (nam tuproqlarda seysmodinamik hodisalar bilan bog‘liq ishlar), N.A.Slezkin (pulpaning harakati), G.I.Barenblatt (turbulent oqimda muallaq zarrachalarning harakati), F.I.Frankl va S.G.Teletov, S.S.Kutateladze va M.A.Stirikovich (gaz-suyuqlikli oqimlar gidravlikasi) olimlarning ishlaridan boshlanadi. Ikki fazali muhitni modellashtirishda bir tezlikli va ikki tezlikli yondoshuvlarni e’tirof etish mumkin (Nigmatulin, 1978). Bir tezlikli yondoshuvda geterogen xususiyatlar kinetik koeffitsiyentlar va termodinamik parametrlar qiymatlari orqali yoki tenglamalarga boshqa fazalarning mavjudligini hisobga oluvchi qo‘shimcha hadlarning qo‘shilishi orqali ifodalanadi. Ikki tezlikli yondoshuvda fazalar tezliklarining turli ekanligidan kelib chiquvchi mexanik va termodinamik ta’sirlarni hisobga olib, ikki fazaning birgalikdagi harakatini ifodalovchi tenglamalar qaraladi. Ikki fazali muhitni bir tezlikli modellar orqali o‘rganishda model qurish va sonli usullarni qo‘llash bo‘yicha P.H.Roberts, D.E.Loper va V.N.Dorovskiy ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Ma’lumki ikki fazali muhitlarning matematik modellarini qurish va o‘rganishga doir dastlabki tadqiqotlar X.A.Raxmatulin tomonidan amalga oshirilgan va bir-biriga kirib boruvchi kontinuumlar tushunchasi kiritilgan. S.K.Godunovning tadqiqotlarida birinchi bo‘lib maxsus differensial tenglamalar sinfi ajratilgan va mazkur sistemani simmetrik ko‘rinishga keltirish ishlari batafsil tahlil qilingan.

N.N.Yanenko, A.A.Samarskiy, G.V.Demidov, V.A.Novikov va Z.G.Gegechkori ishlarida chiziqli tenglamalar uchun kuchsiz approksimatsiya usuli tadqiq qilingan. Nochiziqli tenglamalar uchun kuchsiz approksimatsiya usulining yaqinlashuvchanligi bo‘yicha birinchi natijalar G.I.Marchuk va G.V.Demidovlarga tegishgi bo‘lib, ular qisqa muddatli ob-havo prognozi masalalarining biri uchun bo‘laklash usulining yaqinlashuvchanligini isbotlagan. Y.Y.Belov va G.V.Demidov V.F.Raputalar Byurgers tipidagi kvazichiziqli tenglamalar sistemasi uchun kuchsiz approksimatsiya usulining yaqinlashuvchanligini o‘rganishgan.

Bugungi kungacha, mazkur sohani muvaffaqiyatli rivojlantirgan olimlar sifatida D.F.Fayzullayev, F.B.Abutaliyev, N.M.Muxidinov, R.Sadullayev, A.Begmatov, M.Aripov, Ch.B.Normurodov, N.Ravshanov, B.X.Xujayarov, X.X.Imomnazarov, N.M.Jabborov, A.Ne’matov, A.E.Xolmurodov, B.J.Mamasoliyev, E.Sh.Nazirova kabi olimlarni e’tirof etish mumkin. Sohaga oid tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ko‘p fazali muhitdagi jarayonlarni matematik modellashtirish, ularning sonli usullari va samarali hisoblash algoritmlarini ishlab chiqish, shu bilan birga hisoblash tajribalari sonli natijalarini vizual formada ikki va uch o‘lchamli grafiklarda taqdim etish hozirgi kunda yetarli darajada o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ishlab chiqarish ob’ektlar atrof-muhiti holatini monitoring qilish kompleks tizimini ishlab chiqish” doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Byurgers turidagi tenglamalar bilan ifodalanuvchi jarayonlarni matematik modellashtirish va ikki tezlikli gidrodinamikada yuzaga keladigan bir o‘lchovli Byurgers tipidagi tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasini yechishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘zgarmas bosimga ega bo‘lgan qo‘shsuyuqlikli muhitda nochiziqli to‘lqinlar tarqalishining matematik modelini takomillashtirish;

qo‘shsuyuqlikli muhit tenglamalar sistemasining xususiy holi sifatida Riman tipidagi tenglamalar sistemasini olish;

o‘zgarmas bosimga ega qo‘shsuyuqlikli muhitda nochiziqli to‘lqinlar tarqalishining matematik modelini harakatlanuvchi to‘lqin ko‘rinishidagi yechimini topish;

ikki tezlikli gidrodinamikada yuzaga keladigan Byurgers tipidagi bir o‘lchovli tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasini yechish;

Byurgers tipidagi bir o‘lchovli tenglamalar sistemasini sonli usulda yechish va kompyuterda hisoblash tajribalarini o‘tkazishga mo‘ljallangan dasturiy ta’minotni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti murakkab reologiyali qo‘shsuyuqlikli o‘zgarmas bosimga ega bo‘lgan muhitdan iborat.

Tadqiqotning predmeti nochiziqli to‘lqinlar tarqalishining dinamik masalalarini matematik modellashtirish hamda ularning xossalarini sonli tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada matematik fizika va differensial tenglamalarni yechishning sonli usullari hamda sonli yechimlarni qurish uchun chekli ayirmali sxema ko‘rinishidagi matematik va sonli modellashtirishning usullari, hisoblash matematikasi usullari va funksional tahlildan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘zgarmas bosimga ega bo‘lgan qo‘shsuyuqlikli muhit harakatining matematik modeli saqlanish qonunlari usuli asosida takomillashtirilgan;

takomillashgan qo‘shsuyuqlikli muhit tenglamalar sistemasining xususiy holi sifatida Riman tipidagi tenglamalar sistemasi qurilgan;

Riman tipidagi tenglamalar sistemasining yechimi harakatdagi to‘lqinlar yordamida topilgan, hamda ushbu yechim uchun nochiziqli tenglamalar sistemasi ko‘rinishidagi formula keltirib chiqarilgan;

ikki tezlikli gidrodinamikada yuzaga keladigan Byurgers tipidagi bir o‘lchovli tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasi kuchsiz approksimatsiya usuli yordamida yechilgan;

Byurgers tipidagi bir o‘lchovli tenglamalar sistemasi chekli ayirmalar usulda yechilgan va hosil qilingan algoritm yordamida kompyuterda hisoblash tajribalarini o‘tkazishga mo‘ljallangan dasturiy ta’minot yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Burgers tipidagi tenglamalar sistemasi uchun quyilgan chegaraviy masalaning sonli yechish sxemasi qurilgan;

Burgers tipidagi sistema uchun davriy masala sonli yechilgan va kompyuterda hisoblash tajribalarini o‘tkazishga mo‘ljallangan dasturiy ta’minot yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi matematik model tenglamalarining giperbolik tipga tegishli bo‘lishi, termodinamika qonunlari bilan mosligi asosida qurilgan matematik modelning korrektligi, tadqiqot usullarining matematik qat’iyligi va matematik apparatdan korrekt foydalanilishi hamda olingan natijalarni bir fazali muhitlar uchun o‘xshash masalalarning aniq yechimlari bilan taqqoslashga asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qo‘shsuyuqlikli muhit tenglamalari bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab jarayonlarni yangicha yondashish asosida matematik modellashtirish va chekli-ayirmalar usulini qo‘llanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalar turli geologik va texnologik jarayonlarning matematik modellarini o‘rganishda, dissipativ yaqinlashishda g‘ovak-elastiklikning to‘g‘ri va teskari dinamik masalalarini yechishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dissertatsiyada olingan natijalar quyidagi yo‘nalishlarda amaliyotga joriy qilingan:

qo‘shsuyuqlikli muhit tenglamalar sistemasining harakatlanuvchi to‘lqin ko‘rinishidagi yechimidan 0315-2019-0005 raqamli “Ikki fazali muhitning termodinamik jihatdan mos keladigan matematik modelini kesishish effektli dissipativ yaqinlashishda matematik modellashtirish” grant loyihasida ikki tezlikli muhitlar dinamikasining amaliy geofizik masalalarini nazariy va sonli tadqiq qilishda foydalanilgan (Rossiya Fanlar Akademiyasi Sibir bo‘limi Hisoblash matematikasi va matematik geofizika institutining 2022 yil 9 dekabrdagi 15301/6-01-29-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi, qo‘shsuyuqlikli muhit uchun to‘g’ri dinamik masalani yechish imkonini bergan.

o‘zgarmas bosimga ega bo‘lgan qo‘shsuyuqlikli muhit harakatining takomillashgan matematik modelidan OT-Atex-2018-340 “Ikki tezlikli muhitlar dinamikasining amaliy geofizik masalalarini nazariy va sonli tadqiq qilish” loyihasida qo‘shsuyuqlikli bir bosimli muhitda nochiziqli to‘lqinlar tarqalish jarayonining matematik modelini qurishda foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2022 yil 14 apreldagi 04/1706-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi, Burgers tipidagi tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasini yechish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari **17** ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, shu jumladan, **14** ta Xalqaro va **3** ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami **28** ta ilmiy ishlar chop ettirilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda jami **8** ta maqola, shulardan **4** ta xorijiy va **4** ta respublika ilmiy jurnallarida chop etilgan hamda elektron hisoblash mashinalari uchun dasturni rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi **3** ta guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiya asosiy qismining hajmi **98** betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha mamlakatimiz va xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi berilgan va muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqot ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Zaruriy tushunchalar**” deb nomlangan birinchi bobi yordamchi xarakterga ega bo‘lib, unda dissertatsiyada foydalanilgan zaruriy tushunchalar keltirilgan: tengsizliklar, funksional fazolar, funksional tahlilning ayrim tushunchalari, birinchi tartibli xususiy hosilari chiziqli tenglamalar, ikkinchi tartibli parabolik tenglama uchun maksimum prinsipi va birinchi tartibli hosilalar uchun aprior baholashlar keltirilgan.

Quyidagicha umum qabul qilingan belgilashlarni kiritamiz:

R^n fazoda $\partial\Omega$ bo‘lakli silliq chegaraga ega bo‘lgan Ω sohani va $\bar{\Omega}$ da uzluksiz, normasi $\|f\|_{C(\bar{\Omega})} = \max\limits_{\mathbf{x}\in\bar{\Omega}} |f(\mathbf{x})|$ bo‘lgan $f(\mathbf{x})$ funksiyalar $C(\bar{\Omega})$ fazosini olaylik. M - $\bar{\Omega}$ sohada uzluksiz bo‘lgan funksiyalarning cheksiz to‘plami bo‘lsin ($M \subset C(\bar{\Omega})$).

Ta’rif. Agar ixtiyoriy $\{x_n\} \subset M$ ketma-ketlikdan fundamental qismiy ketma-ketlikni ajratish mumkin bo‘lsa, X normallashtirilgan fazoning M to‘plami kompakt to‘plam deyiladi.

M to‘plamning $C(\bar{\Omega})$ da kompaktligi masalasi qiziqarlidir. Buni aniqlash uchun funksiyalarning tekis chegaralanganligi va tekis darajada uzluksizligi tushunchalarini kiritamiz va Arselaning kompaktlik haqidagi teoremasini keltiramiz.

Ta’rif. Agar shunday K doimiy mavjud bo‘lib, barcha $f \in M$ lar uchun $\|f\|_{C(\bar{\Omega})} \le K$ bo‘lsa, u holda M to‘plamning funksiyalari $C(\bar{\Omega})$ da tekis chegaralangan deyiladi.

Ta’rif. Agar ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ son uchun sho‘nday $\delta = \delta(\varepsilon) > 0$ son mavjud bo‘lib, $|x' - x''| < \delta$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi ixtiyoriy $x', x'' \in \bar{\Omega}$ hamda barcha $f \in M$ lar uchun $|f(x') - f(x'')| < \varepsilon$ tengsizlik bajarilsa, $\bar{\Omega}$ da M funksiyalar oilasi tekis darajada uzluksiz deyiladi.

Teorema 1 (Arsela). $M \subset C(\bar{\Omega})$ to‘plam $C(\bar{\Omega})$ da kompakt bo‘lishi uchun M to‘plamdagi funksiyalar $\bar{\Omega}$ da tekis chegaralangan va tekis darajada uzluksiz bo‘lishi zarur va yetarli.

Ta’rif. Agar shunday $x \in X$ element mavjud bo‘lsaki, har bir $F \in X'$ funksional uchun $< F, x >= \lim\limits_{n\to\infty} < F, x_n >$ tenglik bajarilsa, u holda X dagi $\{x_n\}$ elementlar ketma-ketligi x elementga kuchsiz yaqinlashadi deyiladi.

Bunda x element x_n ketma-ketlikning kuchsiz limiti deyiladi va quyidagicha belgilanadi: $x_n \xrightarrow{кучсиз} x$. Agar x_n ketma-ketlik x elementga kuchsiz yaqinlashsa, u holda $\|x\| \leq \underline{\lim}_{n\to\infty} \|x_n\|$ tengsizlik o'rinlidir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Ikki tezlikli gidrodinamikaning termodinamik muvofiqlashtirilgan matematik modeli"** deb nomlangan bo'lib, qo'shsuyuqlikli muhitlarda nochiziqli to'lqinlarning tarqalishini tavsiflash uchun xususiy hosilali nochiziqli tenglamalar sistemasi tuzilishi muhokama qilingan.

Nochiziqli to'lqinlarning qo'shsuyuqlikli muhitda tarqalishini dissipativ bo'lmagan va dissipativ yaqinlashishda tavsiflovchi xususiy hosilali differensial tenglamalar sistemasi olingan.

Matematik modellarni qurish uchun tutash muhitlar mexanikasining eng samarali usullaridan biri bo'lgan – saqlanish qonunlari usulidan foydalanilgan, bu usul geterofazali muhitlar dinamikasining fizikaviy jihatdan korrekt, termodinamik asoslangan tenglamalar sistemasini olish imkonini beradi. Bu usul doirasida dinamik tenglamalar fundamental fizikaviy tamoyillarni muvofiqlashtirish protsedurasi asosida quriladi: saqlanish qonunlarining va termodinamikaning birinchi qonunining bajarilishi, model tenglamalarining Galiley almashtirishlariga nisbatan invariantliligi.

Dissipativ jarayonlar chiziqli muvozanatsiz termodinamika vositalari yordamida tavsiflanadi. Kiritiladigan dissipativ oqimlar saqlanish qonunlari va tenglamalarining Galiley almashtirishlariga nisbatan invariantliligiga mos keladi. Modellashtirilayotgan muhitning termodinamik xossalari geterofazali muhit holat tenglamasini berilishi bilan aniqlanadi. Bunday yondashuv asosida qurilgan matematik model termodinamik moslashgan va ichki jihatdan ziddiyatga ega bo'lmagan hisoblanadi, bunda modelni qurish jarayoni modelning dissipativ bo'lmagan tenglamalarining giperbolik tipda bo'lishini ta'minlaydi. Ham dissipativ, ham dissipativ bo'lmagan yaqinlashuvda qo'shsuyuqlikli muhitlarda nochiziq to'lqinlar tarqalishini tavsiflovchi differensial tenglamalar sistemasi olingan. Beshinchi paragrafda ikki tezlikli gidrodinamikaning xususiy holi sifatida Byurgers tipidagi kvazichiziqli tenglamalar sistemasi qurilgan. Bu sistema ikki tezlikli gidrodinamika uchun umumlashgan Navye-Stoks sistemasidan bir bosimliligi va siqilishga ega emaslik shartlari bilan farq qiladi.

Dissipativ holatda o'zgarmas bosimli sistema uchun izotermik jarayonda ikki tezlikli muhitning harakat tenglamalar sistemasi quyidagi ko'rinishga ega

$$\frac{\partial \rho_1}{\partial t} + div(\rho_1 \mathbf{u}) = 0, \qquad (1), \qquad \frac{\partial \rho_2}{\partial t} + \mathrm{div}(\rho_2 \mathbf{v}) = 0, \qquad (2)$$

$$\frac{\partial \mathbf{u}}{\partial t} + (\mathbf{u},\nabla)\mathbf{u} = -\frac{1}{\rho}\nabla p + \frac{\nu_1}{\rho}\Delta\mathbf{u} + \frac{\nu_1 + 3\mu_1}{3\rho}\nabla\,\mathrm{div}\mathbf{u} + \frac{\rho_2}{2\rho}\nabla(\mathbf{u}-\mathbf{v})^2 + \mathbf{F} \qquad (3)$$

$$\frac{\partial \mathbf{v}}{\partial t} + (\mathbf{v},\nabla)\mathbf{v} = -\frac{1}{\rho}\nabla p + \frac{\nu_2}{\rho}\Delta\mathbf{v} + \frac{\nu_2 + 3\mu_2}{3\rho}\nabla\,\mathrm{div}\mathbf{v} - \frac{\rho_1}{2\rho}\nabla(\mathbf{u}-\mathbf{v})^2 + \mathbf{F} \qquad (4)$$

(1)-(4) tenglamalar sistemasi ikki tezlikli kontinuum holat tenglamasi bilan mos keladi $p = p\left(\rho, (\mathbf{u}-\mathbf{v})^2\right)$.

(3) va (4) tenglamalarni ekvivalent shaklda yozib olamiz

$$\rho_1\left(\frac{\partial \mathbf{u}}{\partial t} + \frac{1}{2}\nabla\left(\mathbf{u}^2\right) - \mathbf{u}\times \operatorname{rot}\mathbf{u}\right) = -\nabla p + \nu_1\Delta\mathbf{u} + \frac{\nu_1 + 3\mu_1}{3}\nabla \operatorname{div}\mathbf{u} + \frac{\rho_2}{2}\nabla\left(\mathbf{u}-\mathbf{v}\right)^2 + \rho\mathbf{F} \quad (5)$$

$$\rho_2\left(\frac{\partial \mathbf{v}}{\partial t} + \frac{1}{2}\nabla\left(\mathbf{v}^2\right) - \mathbf{v}\times \operatorname{rot}\mathbf{v}\right) = -\nabla p + \nu_2\Delta\mathbf{v} + \frac{\nu_2 + 3\mu_2}{3}\nabla \operatorname{div}\mathbf{v} - \frac{\rho_1}{2}\nabla\left(\mathbf{u}-\mathbf{v}\right)^2 + \rho\mathbf{F} \quad (6)$$

Bu tenglamalardan vaqt o‘tishi bilan uyurmalar o‘zgarishini aniqlaydigan boshqa tenglamalarni keltirib chiqarish mumkin. Buning uchun (5), (6) tenglamalarning ikkala qismiga rot operatorini qo‘llaymiz.

To‘yinganlik o‘zgarmas bo‘lgan, qaytar gidrodinamik hol uchun siqiluvchi muhitning ikki tezlikli gidrodinamikasi tenglamalari sistemasi quyidagi ko‘rinishga ega

$$\operatorname{div}(\mathbf{u}) = 0, \qquad \operatorname{div}(\mathbf{v}) = 0, \quad (7)$$

$$\frac{\partial \mathbf{u}}{\partial t} + u_k\frac{\partial \mathbf{u}}{\partial x_k} = -\frac{1}{\rho}\nabla p + \frac{\rho_2}{2\rho}\nabla\left(\mathbf{u}-\mathbf{v}\right)^2 + \mathbf{F}, \quad (8)$$

$$\frac{\partial \mathbf{v}}{\partial t} + v_k\frac{\partial \mathbf{v}}{\partial x_k} = -\frac{1}{\rho}\nabla p - \frac{\rho_1}{2\rho}\nabla\left(\mathbf{u}-\mathbf{v}\right)^2 + \mathbf{F}, \quad (9)$$

Qovushqoqlik koeffitsiyentlari bilan aniqlangan dissipativ holda esa qism sistema quyidagicha ifodalanadi

$$\operatorname{div}(\mathbf{u}) = 0, \qquad \operatorname{div}(\mathbf{v}) = 0, \quad (10)$$

$$\frac{\partial \mathbf{u}}{\partial t} + u_k\frac{\partial \mathbf{u}}{\partial x_k} = -\frac{1}{\rho}\nabla p + \eta_1\Delta\mathbf{u} + \frac{\rho_2}{2\rho}\nabla\left(\mathbf{u}-\mathbf{v}\right)^2 + \mathbf{F}, \quad (11)$$

$$\frac{\partial \mathbf{v}}{\partial t} + v_k\frac{\partial \mathbf{v}}{\partial x_k} = -\frac{1}{\rho}\nabla p + \eta_2\Delta\mathbf{v} - \frac{\rho_1}{2\rho}\nabla\left(\mathbf{u}-\mathbf{v}\right)^2 + \mathbf{F}, \quad (12)$$

Bu yerda η_1 va η_2 - qism sistemalarning kinematik qovushqoqligi.

(7)-(9) va (10)-(12) tenglamalar sistemasi mos ravishda ko‘pfazali muhit uchun Eyler va Navye-Stoks tenglamalar sistemasining umumlashgan ko‘rinishi.

(10)-(12) sistemaning qismi sifatida Byurgers tipidagi tenglamalar sistemasi olindi. Bir o‘lchamli holatda ushbu sistema quyidagi ko‘rinishga ega

$$\frac{\partial u}{\partial t} + u\frac{\partial u}{\partial x} = \eta_1\frac{\partial^2 u}{\partial x^2} - b\frac{\rho_2}{\rho_1}(u-v) + F, \quad (13)$$

$$\frac{\partial v}{\partial t} + v\frac{\partial v}{\partial x} = \eta_2\frac{\partial^2 v}{\partial x^2} + b(u-v) + F, \quad (14)$$

(13) va (14) formulalarda -fazalararo ishqalanish koeffitsiyent, g‘ovak muhitlar uchun Darsi koeffitsiyentining analogi hisoblanadi.

Mazkur bobning oltinchi paragrafida qo‘shsuyuqlikli muhitda to‘lqin tarqalishini taviflash uchun Riman tipidagi tenglamalar sistemasi va Byurgers tipidagi tenglamalar sistemasi olingan. Bu Byurgers tipidagi tenglamalar sistemasi uchta asosiy ta’sirni tavsiflaydi: energiyaning spektr bo‘yicha nochiziqli qayta taqsimoti, qism-sistemalar qovushqoqliklarining ta’siri, shuningdek fazalararo ishqalanish kabi effektlarni.

Ishqalanish koeffitsiyenti bilan aniqlanuvchi dissipativ holda (13), (14) sistema ikki tezlikli gidrodinamika sistemasidan bosimni o‘zgarmasligi va siqilishga ega emaslik sharti bilan farq qiladi. Shu sababli, Byurgers tipidagi sistema bilan bog‘langan muammolar, ayrim hollarda o‘zgarmas bosimga ega bo‘lgan ikki tezlikli gidrodinamika sistemasi deb ataladi. $\eta_1 = 0$ va $\eta_2 = 0$ holni sodda kvazichiziqli tenglamalar sistemasini beruvchi qovushqoqsiz Byurgers tipidagi tenglamalar sistemasi yoki Riman tipidagi sistema deb ataymiz

$$\frac{\partial u}{\partial t} + u\frac{\partial u}{\partial x} = -b(u-v), \quad (15) \qquad\qquad \frac{\partial v}{\partial t} + v\frac{\partial v}{\partial x} = \varepsilon b(u-v), \quad (16)$$

Bu yerda $\varepsilon = \dfrac{\rho_1}{\rho_2}$ - o‘lchovsiz musbat doimiy.

Y.D.Zeldovich massa kuchlari mavjud bo‘lmaganda $(F = 0)$ bir tezlikli holda qovushqoq bo‘lmagan erkin sistemani o‘zaro ta’sirlashmaydigan zarralarga ega siyraklashgan gaz evolyutsiyasini tavsiflaydigan tenglamalar sifatida qarashni taklif qilgan. Uning g‘oyasiga ko‘ra, asosda yotuvchi zarralarning sof kinematikasi massaning taqsimlanishida hususiyatlarga olib kelish mumkin va yer yuzida moddaning bir jinsli bo‘lmasligiga sababchidir.

“O‘zgarmas bosimga ega bo‘lgan ikki tezlikli muhit tenglamalar sistemasi uchun kuchsiz approksimatsiya usuli” deb nomlangan uchinchi bobda ikkinchi bobda olingan, o‘zgarmas bosimga ega bo‘lgan ikki tezlikli muhitda nochiziqli to‘lqin tenglamalari bilan tavsiflanadigan matematik modelning differensial tenglamalari uchun qo‘yiladigan masalalar nazariy va sonli tadqiq qilingan.

Funksional analiz va differensial tenglamalar sohalaridan ma’lumotlar keltirilgan: kuchsiz approksimatsiya usuli, kuchsiz approksimatsiya usulining umumiy ta’rifi, kuchsiz approksimatsiya usulining yaqinlashishi teoremasi, ikkinchi tartibli xususiy hosilali bir turdagi chiziqli tenglama uchun kuchsiz approksimatsiya usuli, Byurgers tenglamasi uchun Koshi masalasi.

Dissipativ holda qo‘shsuyuqlikli muhitda nochiziqli to‘lqinlarning tarqalishini tavsiflovchi Byurgers tipidagi tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasi ko‘rib chiqilgan. (13), (14) Byurgers tipidagi tenglamalar sistemasi uchun ta’sir etuvchi kuchlarni hisobga olmagan holda ($F(t,x) = 0$) $\Pi_{[0,T]} = \left\{(t,x) : 0 \le t \le T, x \in R^1\right\}$ sohada quyidagi boshlang‘ich shartlarga ega Koshi masalasini ko‘rib chiqamiz.

$$u\big|_{t=0} = u_0(x), \qquad v\big|_{t=0} = v_0(x), \qquad x \in R^1. \qquad (17)$$

Bizni (13), (14) Byurgers tipidagi tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasining $u(t,x), v(t,x) \in C^{1,2}\left(\Pi_{[0,T]}\right)$ xossalarga ega bo‘lgan yechimlari qiziqtiradi - bir marta t bo‘yicha va ikki marta x bo‘yicha uzluksiz differensiallanuvchi funksialar sinfi. Kuchsiz approksimatsiya usuli bilan Byurgers tipidagi bir o‘lchovli tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasi yechimining mavjudligi va yagonaligi isbotlangan.

(13), (14), (17) masalaning $u_0(x)$, $v_0(x)$ Koshi masalalariga to‘xtalamiz. Faraz qilaylik, $u_0(x), v_0(x) \in C^2\left(R^1\right)$ va

$$\left|\frac{d^n u_0(x)}{dx^n}\right| \le c_n, \qquad \left|\frac{d^n v_0(x)}{dx^n}\right| \le \tilde{c}_n, \qquad x \in R^1, \qquad n = 0,1,2, \tag{18}$$

bu yerda c_n, $\tilde{c}_n$ - biror berilgan manfiy bo‘lmagan o‘zgarmaslar.

Avval, Koshi shartlari cheksiz differensiallanuvchi bo‘lgan holini ko‘rib chiqamiz. Faraz qilamizki, $u_0(x), v_0(x) \in C^\infty\left(R^1\right)$ va

$$\left|\frac{d^n u_0(x)}{dx^n}\right| \le c_n, \qquad \left|\frac{d^n v_0(x)}{dx^n}\right| \le \tilde{c}_n, \qquad x \in R^1, \qquad n = 0,1,2,\ldots, \tag{19}$$

Kuchsiz approksimatsiya usuliga ko‘ra, (13), (14), (18) Koshi masalasini quyidagi masala bilan approksimatsiyalaymiz:

$$\frac{\partial u^\tau}{\partial t} = 3\eta_1 u^\tau_{xx}, \qquad \frac{\partial v^\tau}{\partial t} = 3\eta_2 v^\tau_{xx}, \qquad n\tau < t \le \left(n + \frac{1}{3}\right)\tau, \tag{20}$$

$$\frac{\partial u^\tau}{\partial t} + 3u^\tau u^\tau_x = 0, \qquad \frac{\partial v^\tau}{\partial t} + 3v^\tau v^\tau_x = 0, \qquad \left(n + \frac{1}{3}\right)\tau < t \le \left(n + \frac{2}{3}\right)\tau, \tag{21}$$

$$\frac{\partial u^\tau}{\partial t} = -3\tilde{b}(u^\tau - v^\tau), \qquad \frac{\partial u^\tau}{\partial t} = 3b(u^\tau - v^\tau), \qquad \left(n + \frac{2}{3}\right)\tau < t \le \left(n+1\right)\tau, \tag{22}$$

$$u^\tau(0,x) = u_0(x), \qquad v^\tau(0,x) = v_0(x), \tag{23}$$

bu yerda $\tilde{b} = \dfrac{\rho_2}{\rho_1} b$, $N\tau = t^*$, $N > 1$ - butun son, $n = 0,1,\ldots,N-1$, va t^* doimiy (24) tengsizlikni qanoatlantiradi (quyida keltirilgan).

Izoh 1. (20)-(23) masala yechimini tuzishda birinchi kasr qadamlarda issiqlik o‘tkazuvchanlik tenglamasi uchun Koshi masalasi yechiladi, ikkinchi kasr qadamlarda - ko‘chish tenglamasi uchun Koshi masalasi, uchinchi kasr qadamlarda esa - oddiy differensial tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasi yechiladi. Masalaning yechimi quyidagi ko‘rinishga ega:

$$u^\tau = u_0(x) + \frac{3\tilde{b}}{\bar{b}}(v_0(x) - u_0(x))\left(1 - e^{-\bar{b}t}\right),$$

$$v^\tau = v_0(x)e^{-\bar{b}t} + \frac{3\tilde{b}}{\bar{b}} v_0(x)\left(1 - e^{-\bar{b}t}\right) + \frac{3\tilde{b}}{\bar{b}} u_0(x)\left(1 - e^{-\bar{b}t}\right),$$

bu yerda $\bar{b} = 3(b + \tilde{b})$.

(19) munosabatlar bajarilgan bo‘lsin va c_1, $\tilde{c}_1$ ва t^* doimiylar quyidagi shartlarni qanoatlantirsin:

$$1 - c_1 t^* > 0, \qquad 1 - \tilde{c}_1 t^* > 0 \tag{24}$$

U holda $\Pi_{\left[0,t^*\right]}$ sohxada u^τ va v^τ yechim mavjud va t, x o‘zgaruvchilar bo‘yicha o‘zining barcha hosilalari bilan chegaralangan.

Bizga aniqki, ixtiyoriy fiksirlangan τ da (20)-(23) masalaning u^τ va v^τ yechimi τ kattalikka bog‘liq bo‘lmagan xolda chegaralangan

$$\left|u^\tau(t,x)\right| \le c_0, \qquad \left|v^\tau(t,x)\right| \le \tilde{c}_0. \tag{25}$$

Yuqorida keltirilgan mulohazalarni takrorlab, u^τ va v^τ yechimlarning x bo‘yicha ixtiyoriy tartibli xususiy xosilalari τ bo‘yicha chegaralanganligini ko‘rsatish mumkin:

$$\left|\frac{\partial^k u^\tau(t,x)}{\partial x^k}\right| \le C_k, \qquad \left|\frac{\partial^k v^\tau(t,x)}{\partial x^k}\right| \le \tilde{C}_k, \ (t,x)\in \Pi_{[0,t^*]}, \quad k=0,1,\ldots \tag{26}$$

bu yerda C_k, $\tilde{C}_k$ - biror musbat o‘zgarmaslar bo‘lib, $C_k \le c_k$, $\tilde{C}_k \le \tilde{c}_k$.

(25), (26) tengsizliklar va (20)-(23) tenglamalardan τ bo‘yicha tekis baholashlar kelib chiqadi:

$$\left|\frac{\partial^{k+1} u^\tau(t,x)}{\partial t\partial x^k}\right| \le s_k, \qquad \left|\frac{\partial^{k+1} v^\tau(t,x)}{\partial t\partial x^k}\right| \le \tilde{s}_k, \ (t,x)\in \Pi_{[0,t^*]}, \quad k=0,1,\ldots \tag{27}$$

Bu baholashlardan u^τ, v^τ va ularning x bo‘yicha ixtiyoriy tartibli hosilalari $\Pi_{[0,t^*]}$ da tekis chegaralangan va tekis darajada uzluksiz ekanligi kelib chiqadi.

Arsela teoremasiga asosan, diagonal usuli bilan $\{u^\tau\}$, $\{v^\tau\}$ ketma-ketlikning $\Pi_{[0,t^*]}$ sohaning har bir chegaralangan qism sohasida o‘zining x bo‘yicha barcha hosilalari bilan mos ravishda u va v funksiyalarga tekis yaqinlashuvchi $\{u^{\tau_k}\}$, $\{v^{\tau_k}\}$ qism ketma ketliklarini tanlab olish mumkin, buning natijada u va v funksiyalar x bo‘yicha ixtiyoriy tartibli hosilaga ega bo‘ladi va quyidagi munosabatlar bajariladi

$$u\big|_{t=0} = u_0(x), \qquad v\big|_{t=0} = v_0(x), \tag{28}$$

$$\left|\frac{\partial^k u(t,x)}{\partial x^k}\right| \le C_k, \qquad \left|\frac{\partial^k v(t,x)}{\partial x^k}\right| \le \tilde{C}_k, \ (t,x)\in \Pi_{[0,t^*]}, \quad k=0,1,\ldots \tag{29}$$

Yechimning yagonaligi standart usul bilan isbotlanadi.

Natijada, u^τ, v^τ funksiyalar ketma-ketliklarining o‘zi ham $\tau \to 0$ da o‘zining barcha xosilalari bilan $\Pi_{[0,t^*]}$ da mos ravishda u va v ga tekis yaqinlashadi. $u_0(x), v_0(x) \in C^2\left(R^1\right)$ bo‘lgan hol o‘rtacha funksiyalar yordamida isbotlanadi.

Shunday qilib, quyidagi Teorema isbotlangan.

